



“ASIA ALLIANCE BANK” ATBda jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo‘yicha ichki nazorat Qoidalariga 1-sonli o‘zgartirish va qo‘shimchalar

Toshkent 2023-yil

1. 2-bandda:

uchinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“**ichki nazorat tizimi** – jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish sohasidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etishga qaratilgan tashkiliy tuzilma, metodika va tartib-taomillar majmui;”;

to‘rtinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“**Ichki nazorat xizmati** – bankning ichki nazorat tizimini boshqarishga javobgar bo‘lgan maxsus bo‘linmasi;”;

quyidagi mazmundagi o‘ttiz ikkinchi, o‘ttiz uchinchi va o‘ttiz to‘rtinchi xatboshilari bilan to‘ldirilsin:

“**elektron hamyon** – elektron pullar saqlanadigan va ulardan foydalanish imkonini beradigan elektron pullar tizimining dasturiy ta‘minoti, mikroprotessor (chip) va dasturiy-texnik vositalar;

akkaunt – bankning mobil ilovasida mijoz to‘g‘risidagi ma‘lumotlar majmuini o‘z ichiga oladigan hisobga olish yozuvi

yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasi — chet davlatning qonunchilik hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs tashkil etmagan holda tashkil etilgan va o‘z ishtirokchilarining (paychilarning, ishonch bildiruvchilarning yoki boshqa shaxslarning) yoxud boshqa benefitsiarlarning manfaatlarini ko‘zlab daromad (foyda) olishga qaratilgan faoliyatni amalga oshirish huquqiga ega bo‘lgan tashkiliy tuzilmadir (fondlar, sherikliklar, shirkatlar, trastlar, jamoaviy investitsiyalar va (yoki) ishonchli boshqaruvning boshqa shakllari).”.

2. 3.1.1-bandda:

21-kichik bandi chiqarib tashlansin;

22-kichik bandi 21-kichik bandi deb hisoblansin.

3. 3.1.2-bandda:

15-kichik bandi 21-kichik bandi deb hisoblansin;

quyidagi kichik bandlar bilan to‘ldirilsin:

15) mijozning bank kartasidan bank mobil ilovasi orqali bir vaqtda yoki ko‘p marotaba 30 kundan oshmagan muddat davomida bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravariga teng yoki undan oshadigan umumiy summada pul mablag‘larini bir yoki bir nechta bank kartalariga yoxud elektron hamyonlarga o‘tkazilishi;

16) mijozning bank kartasiga bir vaqtda yoki ko‘p marotaba 30 kundan oshmagan muddat davomida bazaviy hisoblash miqdorining 500 baravariga teng yoki undan oshadigan umumiy summada pul mablag‘larini bir yoki bir nechta bank kartalaridan yoxud elektron hamyonlardan kelib tushishi;

17) 5 ta va undan ortiq bank kartasidan (elektron hamyondan) bank mobil ilovasi orqali bir vaqtda yoki ko‘p marotaba 30 kundan oshmagan muddat davomida 1 ta xorijiy elektron hamyonga pul mablag‘larini o‘tkazilishi;

18) 5 ta va undan ortiq bank kartalariga (elektron hamyonlarga) bir vaqtda yoki ko‘p marotaba 30 kundan oshmagan muddat davomida 1 ta xorijiy elektron hamyondan pul mablag‘larini kelib tushishi;

19) 1 ta bank kartasidan (elektron hamyondan) bank mobil ilovasi orqali bir vaqtda yoki ko‘p marotaba 30 kundan oshmagan muddat davomida 5 ta va undan ortiq xorijiy bank kartasiga yoki xorijiy elektron hamyonga pul mablag‘larini o‘tkazilishi;

20) 1 ta bank kartasiga (elektron hamyonga) bir vaqtda yoki ko‘p marotaba 30 kundan oshmagan muddat davomida 5 ta va undan ortiq xorijiy bank kartasidan yoki xorijiy elektron hamyondan pul mablag‘larini kelib tushishi.

4. 3.2.11-banddan “shubhali operatsiya aniqlangan kundan keyingi ish kunidan kechiktirmay,” degan so‘zlar chiqarib tashlansin.

5. 3.3.6-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“3.3.6. Har bir xabar to‘g‘risidagi ma‘lumot maxsus jurnalga kiritiladi.

Maxsus jurnal elektron shaklda yuritiladi.”.

6. 3.3.7, 4.1.5, 4.3.7 va 7.19-bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

7. 4.1.7-bandi ikkinchi xatboshisi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Ichki nazorat xizmati xodimi mijozni yuqori tavakkalchilik darajasi toifasidan chiqarganda uning elektron anketasida va yuqori tavakkalchilik darajasi toifasiga kiradigan mijozlarning elektron ro'yxatida tegishli o'zgartirish kiritadi.”

8. 4.2.1-bandda:

“n” kichik bandi chiqarib tashlansin;

quyidagi kichik bandlar bilan to'ldirilsin:

1¹) yuridik shaxsni tashkil etmagan chet el tuzilmasi;

1²) akkauntlariga 20 ta va undan ortiq bank kartalari biriktirilgan shaxslar.

9. 4.3.6-bandda:

uchinchi xatboshi chiqarib tashlansin;

to'rtinchi – beshinchi xatboshilar tegishli ravishda uchinchi – to'rtinchi xatboshilar deb hisoblansin.

10. 6.1.3-bandning beshinchi xatboshisidan “operatsiya to'xtatib turilgan kunning o'zida” degan so'zlar chiqarib tashlansin.

11. 7.12-banddan ikkinchi xatboshi chiqarib tashlansin.

12. 7.18-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7.18. Maxsus jurnalga operatsiya haqidagi barcha ma'lumotlar kiritiladi, xususan maxsus jurnalga kiritiladigan ma'lumot tartib raqami va sanasi, mijoz nomi (mijoz xos raqamini ko'rsatgan holda), operatsiya turi, summasi va amalga oshirilgan sanasi, mijoz kontragenti haqidagi ma'lumotlar, operatsiya yuzasidan ma'lumot taqdim qilgan bo'linma nomi, operatsiya bo'yicha amalga oshirilgan choralar to'g'risida ma'lumot, shu jumladan xabar berilgan sana va raqami va boshqalar.”

13. 7.19-band quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7.19. Ichki nazorat xizmati faoliyatida ishlatilgan hujjatlardan (Markaziy bank va maxsus vakolatli davlat organi bilan yozishmalar, shu jumladan maxsus vakolatli davlat organiga berilgan elektron shakldagi xabarlar, mijozlarning elektron shaklidagi anketalari, jurnallar va boshqalar) foydalanish imkoniyatini chegaralash maqsadida bunday hujjatlar va ularning ro'yxati bevosita Ichki nazorat xizmati (mas'ul xodim) tomonidan maxsus jihozlangan xonada yoki seyfda qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlar davomida, lekin kamida besh yil mobaynida saqlanishi kerak.”

14. 3-ilovaning 7-bandi quyidagi tahrirda bayon etilsin:

“7. Mijoz anketasini to'ldirgan xodimning familiyasi, ismi, otasining ismi va lavozimi.”